

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал



№ 3/2 2025



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2025

3/2-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гуўалық берилген.*

Нөкис

3/2-сан 2025

май - июнь

*Қарақалтақстан Республикасы мектепке шекемги хам мектеп билимлендириўи
министрлиги, Қары Ниязий атындагы Тәрбия педагогикасы миллий институты
Қарақалтақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Хушбоқ НОРБҰТАЕВ
Сапардурды АБАЕВ	Ойниса МУСУРМОНОВА
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Сафо МАТЧОН
Мавлюда АЧИЛОВА	Шукурулло МАРДОНОВ
Азизжан АБДАЗИМОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Шухрат АБДУЛЛАЕВ	Абдимурат ЕСЕМУРАТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Даулетназар СЕЙИТКАСЫМОВ
Злийха ОРАЗЫМБЕТОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Мансурбек ОНГАРОВ	Раъно ОРИПОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Норим РАХМАНОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Мукаддас РАХМАНОВА
Марифжон АХМЕДОВ	Светлана СМЕРНОВА (Москва, Россия)
Гулзабира БАБАШЕВА	Тажибай САПАРБАЕВ
Умида БАҲАДИРОВА	Мухаббат САЛАЕВА
Фархад БАБАШЕВ	Гўзал СОДИҚОВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Улбосын СЕЙТЖАНОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Комил ГУЛЯМОВ	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Куанишбек ТҮРЕКЕЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Тажикал КУДАЙБЕРГЕНОВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Ойбахор ШАМИЕВА
Шохида ИСТАМОВА	Ризамат ШОДИЕВ
ВОХИД КАРАЕВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Мохира КУВВАТОВА	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Джавдод ПЎЛАТОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гулрухсор ЭРТАШЕВА
Пердебай НАЖИМОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Асқарбай НИЯЗОВ	Қонысбай ЮСУПОВ
	Гулара ЮСУПОВА



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ АДЕБИЯТ

Shamshetdinova G.A. Feyil sóz shaqaplarin úyreniwde oyin hám mashqalalı - izleniw usullarınan paydalanıw	8
Sapaeva F.D. She'riy tarjimada qofiya talablarini saqlash muammosi	12
Абдуллаев Қ.Ф., Боймуродова Г.Т. Зардуштийлик таълимоти маданий анъаналарининг мумтоз форс адабиётида ифодаланиши	20
Xoshimova D. R. O'quv materiallarida ingliz tilidagi ifodali konnotativ leksikaning ekspressivlik amaliy ahamiyati	25
Xaldarchayeva G.S. Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish tashkil qilish, o'tkazish (nofilologik ta'lim yonalishidagi otmlarda interaktiv metod va uning hususiyatlari)	30
Abduqahhorova X.A. Izohli lug'atlarda illyustrativ misollarning berilishi	37
Юсупова Ф.М. Маданиятлараро мулоқот компетенциясини ривожлантиришнинг усул ва йўллари	41
Atadjanova M.A. Yumor diskursning pragmatik xususiyatlari	52
Базарова Н.Ш. Неологизмы современного русского языка начала 2020-х годов: тенденции развития лексики	57
Наркузиева Г.З. Обучение аудированию на уроках русского языка	66
Karimova A.A. Strategies for ensuring cultural adaptation in foreign language teaching through innovative approaches	71
Axrorova M.N. Interactive reading tasks and peer feedback techniques	82
Karimova A.A. Gamification in english language teaching: enhancing motivation and engagement in higher education	91
Otakhonova K.A. Improving students' work with media texts based on the linguacultural approach	102
Rakhmatullaeva N.N. The role of interactive speaking tasks in improving communicative competence in English	109
Axrorova M.N. Innovative techniques for teaching descriptive writing to efl learners using visual prompts and mind maps	115
Rakhmatullaeva N.N. The role of pronunciation practice in developing effective english communication	124
Elmurodov U.Ya. Meaning and polysemy: semantic systems in english	129
Nurmuxammadova D.J. Creating equitable learning environments through clil technology: bridging linguistic and cognitive gaps in education	133
Matenova F. M. The peculiarities of the works of Ivan Turgenev: the comparison with chinese culture	139

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Xojametov A.A. Pedagog alimlarning tarbiyash shaxsi tuwrisidagi pikirleri	144
Sultaniyazova A.B. Mashqalali talim beriydigi bazi bir masaleleri	147
Qudiyarova V.K. Lingvodidaktik nutqiy kompetensiyalarni qo'llash usullari va darajalari haqida	151
Qudiyarova V.K. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini integratsion lingvodidaktik rivojlantirishning tadqiq qilinish masalalari	156
Bobonazarova S.O. Talabalarni ijodiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanishning ahamiyati	161
Olimov S.A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni	166
Abdalova S.R. Talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllantirish	173
Ergashev B.B. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda loyihalash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	180
Tojiyeva Sh.M. Ijodiy faoliyatni shakllantirishning uslubiy yondashuvlari va amaliyotlari haqida	188



Usarov J.E., Yusufbekova X.A. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'lim tizimidagi muammolar yechimining pedagogik imkoniyati sifatida	196
Sharaxmatova A.K. Kredit-modul ta'lim tizimiga o'tishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish	203
Rahmonova G.N. Pedagogik ta'lim jarayoniga deontologik yondashuvning tutgan o'rni – pedagogik muammo sifatida	209
Saidova D.B., Ergasheva H.D. Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish	215
Yarova S.B., Ahmadjonov J.O' Zamonaviy ta'lim tarbiya va uning mohiyati	220
Ataxanova S.O. Talabalarda sog'lom tafakkur namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari	227
Kamolova N.T. Pedagogik ta'limda talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirish	234
Jumamuratov A.P., Utebaev T.T. Multiagent tizimini yaratish asosida talabalarning o'qitish jarayonini optimallashtirishning nazariy asoslari	242
No'monjonova D.S. Ta'lim klasteri muhitida «Talaba talabaga ustoz» modeli	246
Jumanov A.A., Ahmadjonov J.O' Masofaviy ta'limning pedagogik imkoniyatlari va muammolari	251
Yusufbekova X.A. Mustaqil ta'lim, uning tashkil etilishi, maqsadi va vazifalari	258
Shodiyeva G.X. Turkiston jadid maktablarining tashkiliy mazmuni, g'oyaviy manbaasi, o'quv rejalarining pedagogik mohiyati	263
Djilkibayeva N.I., Normo'minov B.U. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish uzluksizligi	270
Raxmonova S.M. Talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	275
Shodiyeva S.U. Talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	284
Abdullayeva M.R. Talabalarni ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini pedagogika fani konsepsiyasi asosida takomillashtirish - dolzarb pedagogik muammo	291
Qudratov J.J. Kimyo fanini o'qitishda yangicha pedagogik yondashuvlar	297
Mahramova Z.Yu. Uchinchi renessansning poydevorini yaratishda huquqiy ta'lim-tarbiyaning o'rni	303
Axralov Sh.S., Axrorova S.S. Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida jadid pedagogik merosini o'quvchilarga singdirish orqali o'zlikni anglashni shakllantirish usullari	306
Рахмонова Г.Ш. Технологии духовно-нравственного воспитания	313
Zaripova D.A., Primova D.G' Online learning and motivation: a self-determination theory approach	319
Khurramova F.M. Theoretical basis of the development of pragmatic competence in students of vocational education	326
Fayzieva N.N. The use of artificial intelligence for monitoring students' knowledge in higher education systems	331
Mahmudova Z.Sh. Theoretical foundations of gamification and its impact on education	336

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Абаев С. Диний экстремизм, терроризм ҳаи радикализмге қарси гүрес стратегияси	341
Norov N.J. Yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilishda husayn voiz koshifiy asarlarining o'rni	348

**ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА**

Djumagulov Z.U., Nazarbekov K.K. Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi muammolari	355
Sohibov D.B. Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	361
Bekchanov Sh.E., Axralov H.Z., Xudoyberdiyev A.A. Muhandislik yo'nalishlari uchun matematika o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	368
Jumayev S.I., Gulimov A.B. Qayta tiklanuvchi energiya – yashil kelajak sari yo'l	377
Qudratov J.J. Qoraqalpog'iston fosforitlaridan va shrot chiqindilaridan guminli oddiy superfosfat ishlab chiqarishning samaradorligi	383
Tangriyev T.Ch. Nymphalidae oilasi kapalaklarining morfologik xususiyatlari va biologik ahamiyati	390
Аламиннов М.Х. Об использовании практико - ориентированного подхода в преподавании предмета «Сетевые технологии»	395
Berdibaev M.S. The impact of interactive technologies in shaping prospective mathematics teacher's professional development	400
Jumamuratov A.P. The role of digital technologies in informatics and its teaching	405

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Xudaybergenova A.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka tarbiyalashning pedagogik texnologiyasini takomillashtirish	412
Asqarova D.Q. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatrlashgan faoliyatlarni tashkil etish texnologiyalari	418
Suyunova M.A. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda ijtimoiy ekologik dunyoqarashni shakllantirish	424
Bobomurotov S.M. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida variativ tushunchalarni shakllantirish jarayoni	430
Panjiyev J. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tushunchalarni fanlararo integratsiyasi mazmunida takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari	434
Teshayeva S.J. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda media ta'limning ahamiyati	439
Eshchanova G., Abdullayeva M. Boshlang'ich ta'limning "ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga zamonaviy yondashuv	443
Qayumova Sh.T. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishda uslubiy yondashuvlar	447
Tursunova S.T. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'quvchilarning rivojlanishiga ta'siri: imkoniyatlari va xavfi	454
Shoyusupova Sh.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	459
Quranboyeva M.Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish	464
Berdiyeva G.Sh., Nafasova J.T. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda nutq o'stirish mashg'ulotlarining zarurati	467
Shanazarov O. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda sog'lomlashtirish madaniyatini shakllantirish ko'nikmalari	472
Akbarova D. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini nazariy bilimlarini rivojlantirish	477
Elibaeva L.S. Boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar faolligini oshirish yo'llari	480



Raxmatova N.A. Maktabgacha ta'limda boshlang'ich jismoniy sifatlarga o'rgatish metodikasi	486
Umirova M. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilrida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyati	493
Эшчанова Г., Козиева Р. Р. Компетентностный подход в процессе преподавания сказок в начальных классах	497
Маджитова С.С. Педагогические механизмы развития творческого мышления у будущих педагогов дошкольного образования	503
Boymurodova G.T. Structures and organization of foreign language lessons in general schools of Uzbekistan	508

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Oripov N. Ch. Chizma tasvirda ob'yektlarni qurish va shakllarni yaratish usullari	517
Очилов Ф.Э., Сатторов Б.Н., Лосякин А.М. Проблемы и перспективы обучения черчению в профессиональном образовании с помощью искусственного интеллекта	523
Усманов С., Ибрахимов Ф. К формированию профессионально-практической компетентности среди учащихся вузов архитектурных направлений в рамках занятий по дисциплине «строительные материалы»	530

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

Хамраев А.Б. Ижодий муҳитда жипсликни таъминлашда пленэрнинг аҳамияти	534
Boymurodova G.T., Muxsinova K.S. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari	538
Musurmanova Sh.I. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba yoshlar bilan ishlashda jamoatchilik nazoratini o'rnatish	544
Yo'ldashova M.B. Emotsional intellekt va uning jamiyatdagi ahamiyati	553
Yo'ldashova M.B. Stress va uni boshqarish usullari	560
Mamajonov M. Geografiya yo'nalishi talabalari milliy va madaniy ijtimoiylashuvining mavjud holati йй	567
Jumayev S.I., Gulimov A.B. O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlarida suv resurslari boshqaruvi: dolzarb muammolar va ularning yechimlari	581
Ishmatova O.S. Xorijiy surdopedagogikada fonetik ritmikaning o'rni	591
Ismatova D.Sh. Kasbiy ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishda xorij tajribasi	594
Iskandarova R.Sh. Shaxs agressivligi	600
Iskandarova R.Sh. Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari	604
Xodjayev B.X. Sotsial ta'lim sifati: xorijiy tajriba va asosiy omillar	610

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Ametov S., Zaripov B. Júziwdiń insan organizmine fiziologiyaliq, psixologiyaliq hám salamatlastiriwshı tásiiri	615
Aytjanov S. Basketboldiń dene tárbiyası sistemasındaǵı orńı hám rawajlanıw basqıshları	619
Naubetullaev T.T. Jas voleybolshılardı tańlaw hám texnikalıq-taktikalıq sheberligin qalıplestiriw texnologiyası	623
Naubetullaev T.T. Malakali voleybolchılarning tezkorlik qobiliyatini takomillashtirish	632
Raxmatullaev T.A. Zamonaviy yondashuvlar asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari	640
G'anixo'jayev A.Sh. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inson xususiyatlarini shakllantirish yo'llari	643
Jo'raboyev A.B. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda tibbiy pedagogik nazoratning o'rni va ahamiyati	648



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA USLUBIY YONDASHUVLAR

Qayumova Sh.T.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Guliston davlat universiteti doktoranti (DSc)

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, metodik yondashuvlar, bo'lajak o'qituvchi, kompetensiyaviy yondashuv, gamifikatsiya, STEAM, sun'iy intellekt, interaktiv ta'lim, funksional savodxonlik.

Ключевые слова: начальное образование, грамотность чтения, методические подходы, будущий учитель, компетентностный подход, геймификация, STEAM, искусственный интеллект, интерактивное обучение, функциональная грамотность.

Key words: primary education, reading literacy, methodological approaches, future teacher, competency-based approach, gamification, STEAM, artificial intelligence, interactive learning, functional literacy

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishga o'rgatishning metodik asoslari, innovatsion yondashuvlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari yoritilgan. Jumladan, kompetensiyaviy, differensial, gamifikatsion, STEAM yondashuvlarining mazmuni ochib beriladi, ularni o'qituvchilik tayyorgarligi jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy takliflar beriladi. Shuningdek, savodxonlikni o'rgatishda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются методические основы, инновационные подходы и современные образовательные технологии подготовки будущих учителей начальных классов к формированию и развитию читательской грамотности учащихся. В частности, раскрывается содержание компетентностного, дифференцированного, игрового и STEAM-подходов, даются практические предложения по их интеграции в процесс подготовки учителей. Также анализируется эффективность использования искусственного интеллекта, цифровых технологий и интерактивных инструментов в обучении грамоте.

SUMMARY:

The article examines the methodological foundations, innovative approaches and modern educational technologies for training future primary school teachers to form and develop students' reading literacy. In particular, it reveals the content of competence-based, differentiated,



game and STEAM approaches, and provides practical suggestions for their integration into the teacher training process. It also analyzes the effectiveness of using artificial intelligence, digital technologies and interactive tools in literacy teaching.

Bugungi kunda jamiyatda har tomonlama barkamol, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi[2]. Bu borada ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida o'rin tutadi, chunki bola tafakkuri, dunyoqarashi va asosiy kompetensiyalarining shakllanishi aynan shu davrda sodir bo'ladi. Xususan, o'qish savodxonligi – barcha bilim sohalariga kirishning eshigi, o'quvchi tafakkurining shakllanishida asosiy vosita sanaladi[13]. Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-sonli farmoni, “Ilm-ma'rifat va raqamli texnologiyalar yili” davlat dasturi, hamda 2022-yil 21-martdagi “Yangi O'zbekiston maktabi” konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–168-sonli qarori mamlakatimizda ta'lim sifatini tubdan oshirish, o'qituvchilar malakasini zamon talablari asosida takomillashtirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish orqali savodxonlik darajasini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti” hamda Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PIRLS dasturida ishtirok etish bo'yicha olib borilayotgan tayyorgarliklar, o'qituvchilarning bu boradagi salohiyatini oshirish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda[14]. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qish savodxonligi metodikasiga o'rgatish, ularni metodik yondashuvlar bilan tanishtirish va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish – bugungi ta'lim islohotlarining asosiy talablaridan biridir.

Mazkur maqolada aynan ushbu yo'nalish – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga o'rgatish jarayonini takomillashtirishda uslubiy yondashuvlar, zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi maktab o'quvchilarining nafaqat o'qishni o'rganishi, balki o'qilgan matnni tushunish, tahlil qilish va real hayotda qo'llay olish kabi funksional savodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qish savodxonligi — o'quvchining barcha fanlarni o'zlashtirishi uchun asosiy tayanch omil hisoblanadi[11]. Shu boisdan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini savodxonlikni o'rgatish metodikasiga



puxta tayyorlash dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy, innovatsion, shaxsga yo'naltirilgan va texnologik yondashuvlarni qo'llashni talab etadi.

O'qish savodxonligini rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlarning o'rni beqiyoz hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining asosiy metodologik yo'nalishlaridan biri bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayonida o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda o'z bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llay olishga o'rgatish maqsad qilinadi. Bu yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'rgatishda e'tibor quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratiladi:

- Mustaqil fikrlash kompetensiyasi – o'quvchining o'qigan matni ustida erkin fikr yurita olishi, o'z qarashini bildirishga tayyor bo'lishi;
- Tahliliy kompetensiya – matndan asosiy g'oya, asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajratib olish, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish;
- Baholash kompetensiyasi – o'qigan ma'lumotni tahlil qilib, unga nisbatan o'z shaxsiy munosabatini shakllantirish va ifodalash;
- Aloqa va muloqot kompetensiyasi – matn asosida o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, ravon ifodalash.

Kompetensiyaviy yondashuvda matn faqat o'qish ob'ekti sifatida emas, balki o'quvchini hayotga tayyorlaydigan vosita sifatida qaraladi. Ya'ni, bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga matn mazmunini tahlil qilish, uni o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lash, voqealar rivoji ustida fikr yuritish, muammolarga yechim izlash va xulosa chiqarishni o'rgatadilar. Masalan, bolalar adabiyoti namunalarini o'rganishda faqat voqeani hikoya qilib berish emas, balki: qahramonlar harakatini tahlil qilish, ular tutgan yo'lni baholash, "agar siz o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutardingiz?" kabi savollar orqali o'quvchining tafakkurini rag'batlantirish mumkin.

Shu bilan birga, bu yondashuvda metakognitiv ko'nikmalar (ya'ni, o'z-o'zini o'rganish va boshqarish) ham rivojlanadi. O'quvchi o'qigan matnni qanday tushunganini anglaydi, nimani tushunmaganini biladi va bu borada mustaqil izlanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu yondashuv asosida tayyorlash natijasida ular o'z o'quvchilarida: chuqur o'ylash, savol berish, hayotiy muammolarni matnlar asosida anglash va hal qilish ko'nikmalarini rivojlantira oladi.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchining bilim olish jarayonidan amaliyotga yo'naltirilgan, faol, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrga asoslangan ta'limni ko'zda tutadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilar



"o'qib tushunish", "anglab amal qilish", va "o'rganib hayotga tatbiq etish" kabi zamonaviy savodxonlik ko'nikmalarini puxta egallaydilar.

Differensial yondashuv. Differensial yondashuv — bu o'quvchilarning individual psixologik-pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etish tamoyiliga asoslanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish savodxonligini shakllantirish jarayonida bu yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir bola o'ziga xos rivojlanish sur'ati, qobiliyati, o'rganish uslubi va ehtiyojlariga ega bo'ladi. Differensial yondashuvni amalda qo'llashda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi mezonlarga e'tibor qaratishlari zarur:

- Yosh va rivojlanish darajasi: Bolalarning yoshiga mos psixologik imkoniyatlari, e'tibor, xotira, tafakkur darajasi hisobga olinadi. Masalan, 1-sinf o'quvchisi uchun qisqa, sodda, ko'rgazmali matnlar tanlansa, yuqori sinflarga murakkabroq va mazmunli matnlar berilishi mumkin.
- Qiziqish va ehtiyojlar: O'quvchining nimalarga qiziqishi, nimalarni ko'proq o'qishni yoqtirishi asosida individual topshiriqlar tanlanadi. Bu esa savodxonlikni rivojlantirishni yanada samarali qiladi.
- Bilim darajasi: O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi farqli bo'lishi mumkin. Shu bois, kuchli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun farqlangan matnlar va topshiriqlar beriladi (masalan, kuchli o'quvchiga matn asosida tahliliy savollar, sust o'zlashtiruvchiga esa faktlarni topish kabi sodda topshiriqlar).
- O'rganish uslubi: Ba'zi o'quvchilar tinglab yaxshiroq o'rganadi, boshqalari esa ko'rib yoki amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradi. O'qituvchi bu farqni inobatga olib, turli xil materiallardan foydalanadi: audio matnlar, rasmlar, hikoyalar, jismoniy harakatlar bilan bog'langan o'yinli topshiriqlar.

Bo'lajak o'qituvchilar differensial yondashuv asosida: bir xil mavzuni turlicha darajadagi topshiriqlar bilan tushuntirish; farqlangan baholash mezonlari (ya'ni, har bir o'quvchining o'ziga mos yutuqlariga qarab baholash); o'quvchilarning qiziqishini saqlab qolish va ijobiy motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash metodikasini egallaydilar. Shuningdek, bu yondashuv o'qituvchidan yuqori darajadagi kuzatuvchanlik, tahlil qilish, moslashtirish, dars rejalarini individuallashtirish ko'nikmalarini talab qiladi[9]. Bu esa pedagogik mahoratning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Differensial yondashuv: o'quvchilarning o'z-o'ziga ishonchini oshiradi; darslarda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi; har bir bola o'z sur'atida savodxonlikni rivojlantiradi; ta'limda teng imkoniyatlar muhitini yaratadi. Bu yondashuv orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy ta'lim talablariga mos, inkluziv va sifatli o'qitish metodikasini shakllantiradilar.



Gamifikatsion yondashuv. Gamifikatsion (o‘yinga asoslangan) yondashuv – bu ta’lim jarayonini o‘yin elementlari orqali tashkil etish orqali o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik strategiyalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda bu yondashuvning samaradorligi nihoyatda yuqori bo‘lib, u savodxonlikni rivojlantirishda kuchli motivatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar tabiatan harakatchan, faollikni yoqtiradigan, ijodiy faoliyatga moyil bo‘lgan shaxslardir. Shu bois o‘yin shaklidagi o‘quv faoliyati orqali bilim berish ularning tafakkurini rag‘batlantiradi, darsda faol ishtirokini ta’minlaydi hamda o‘rganilayotgan materialga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi[11]. Gamifikatsion yondashuv doirasida savodxonlikni rivojlantirishda quyidagi usullar keng qo‘llaniladi:

- Rolli o‘yinlar – o‘quvchilar matn qahramonlarining roliga kirib, voqealarni jonlantirish orqali matn mazmunini chuqurroq anglaydilar, bu esa tahliliy o‘qish, ifodali gapirish, his-tuyg‘ularni aks ettirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Topishmoq va jumboqlar – bu elementlar bolalarda fikrlash, mantiqiy xulosalash, kontekst asosida anglash qobiliyatini kuchaytiradi.
- Viktorinalar va tanlovlar – matn asosida savol-javoblar shaklida tashkil etilgan o‘yinlar bolalarning eslab qolish, tezkor fikrlash va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.
- QR kodli interaktiv topshiriqlar – raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan matnlar, testlar yoki audio materiallar o‘quvchini mustaqil ishlashga undaydi, media savodxonlikni rivojlantiradi va dars jarayonini zamonaviylashtiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ushbu yondashuvga tayyorlashda ularni: o‘yinli topshiriqlarni metodik jihatdan to‘g‘ri tanlay olishga; o‘yin orqali ta’limiy maqsadlarni amalga oshirishni rejalashtirishga; motivatsion va baholovchi komponentlarni uyg‘unlashtirishga; o‘quvchilarning emotsional, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladigan o‘yin muhitini yaratishga o‘rgatish zarur. Gamifikatsion yondashuvni o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlar, modellashtirilgan darslar, interaktiv seminarlar, loyiha asosidagi ishlanmalar katta ahamiyatga ega. Bo‘lajak pedagog o‘z fani va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari asosida o‘yinni tanlashi va undan to‘g‘ri foydalanishni o‘zlashtirishi kerak. Gamifikatsion yondashuv: savodxonlik darslarini zerikarli bo‘lishdan saqlaydi; o‘quvchini faol subyektga aylantiradi; mustahkam bilimlarni shakllantiradi; shaxsiylashtirilgan, ijtimoiy faol va motivatsion muhitni yaratadi. Bu yondashuvning samarali joriy etilishi zamonaviy o‘qituvchidan kreativlik, texnologik savodxonlik va pedagogik tafakkurni talab qiladi.



STEAM yondashuvi. STEAM (Science – fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Math – matematika) yondashuvi — bu fanlararo integratsiyaga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish metodidir. Ushbu yondashuv nafaqat texnik va aniq fanlarni, balki gumanitar yo‘nalishlarni, xususan o‘qish savodxonligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi orqali savodxonlikni shakllantirish o‘quvchilarda integratsiyalashgan, tizimli va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. STEAM yondashuvi asosida: matn mazmunini turli fanlar bilan bog‘lash; ilmiy hodisalarni matn asosida tushuntirish; muammo va savollar asosida tahliliy fikrlashni rivojlantirish; ko‘p bosqichli o‘quv faoliyatini tashkil etish ko‘zda tutiladi. Misol uchun: Science (fan): O‘quvchilar tabiat, hayvonot olami yoki ekologiya haqida hikoya yoki maqolalarni o‘qib, ulardagi ilmiy tushunchalarni muhokama qiladilar. Technology (texnologiya): Matndagi hodisalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida ko‘rib chiqish, masalan, matndagi ob-havo hodisasini video yoki AR texnologiya orqali tasavvur qilish. Engineering (muhandislik): Matnga asoslanib oddiy konstruktorlar yoki modellar yasash (masalan, suv aylanishi haqidagi matndan keyin tajriba qilish). Art (san’at): O‘qilgan matn asosida rasm chizish, sahna ko‘rinishi qilish yoki qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish orqali emotsional va estetik idrokni rivojlantirish. Math (matematika): Matndagi miqdoriy ma’lumotlar asosida misollar tuzish, muammoli savollarni yechish, grafiklar yoki diagrammalar chizish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun STEAM yondashuvini o‘rganish ularni quyidagi ko‘nikmalar bilan qurollantiradi: fanlararo bog‘liqlikni ko‘ra olish; matn asosida darsni loyihalash; o‘quvchini ko‘p yo‘nalishli faoliyatga jalb qilish; real hayotiy holatlar bilan bog‘langan topshiriqlar tuzish. STEAM asosidagi savodxonlik mashg‘ulotlarida o‘quvchilar matnni o‘qibgina qolmay, balki uni sinchkovlik bilan tahlil qiladi, fanlararo kontekstda baholaydi va u bilan bog‘liq ijodiy hamda ilmiy faoliyatni amalga oshiradi. Bu esa matnga chuqur kirib borishni, tafakkur darajasining oshishini ta’minlaydi. STEAM yondashuvi orqali savodxonlikni rivojlantirish: o‘quvchining hayotga yaqinlashtirilgan o‘rganish muhiti orqali o‘zlashtirishini ta’minlaydi; qiziqishni oshiradi va mustaqil o‘rganishga undaydi; zamonaviy kasbiy yo‘nalishlarga (fan-texnika, san’at, texnologiya) qiziqishni uyg‘otadi; kompleks fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni STEAM yondashuvi orqali o‘qitish uchun modellashtirilgan darslar, loyiha ishlari, guruhlarda ishlash mashg‘ulotlari va tajriba asosidagi mashqlar samarali usullar hisoblanadi. Bu metod ularni nafaqat savodxonlik, balki fanlararo innovatsion yondashuvlar bo‘yicha ham yetuk mutaxassis bo‘lishlariga xizmat qiladi.



Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy raqamli platformalar, matnni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar, interaktiv e-topshiriqlar yaratish vositalari bilan tanishtirish, ularni mustaqil foydalanishga o'rgatish zarur. Masalan, ChatGPT, Quizlet, Kahoot, Canva kabi vositalar yordamida o'qish materiallari va topshiriqlar tayyorlanadi. Audio, video va animatsion materiallar orqali matnni tushuntirish o'quvchilarda chuqur tushunishni ta'minlaydi. Bo'lajak o'qituvchilar matnni drammatizatsiya qilish, jonli obrazlar bilan boyitish kabi uslublarni egallashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, maqola bugungi ta'lim islohotlari ruhiga mos holda bo'lajak pedagoglarni zamonaviy o'qitish metodikalari bilan qurollantirish, ayniqsa o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishga oid zamonaviy yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va metodik vositalarni chuqur tahlil qilgan holda takliflar beradi. Bu esa pedagogik ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash tizimlarida raqobatbardosh natijalarga erishish, eng asosiysi – ongli, faol, zamonaviy fikrlovchi avlodni tarbiyalashda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-martdagi "Yangi O'zbekiston maktabi" konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–168-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti". – Toshkent: 2022.
4. PIRLS – Progress in International Reading Literacy Study. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). – <https://www.iea.nl>
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2021.
6. Nematov A.A. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
7. To'rayev N., Matyaqubova M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.
8. Egamberdiyeva N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. // "Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar" ilmiy-amaliy jurnal. – 2023, №2.
9. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (2014). Cooperation in the Classroom. – Edina, MN: Interaction Book Company.
10. Gee, J. P. (2003). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. – New York: Palgrave Macmillan.
11. Murodova N. Gamifikatsiya orqali boshlang'ich sinflarda savodxonlikni rivojlantirish. // "Zamonaviy ta'lim muammolari" to'plami. – Toshkent: TDPU, 2023.
12. UNESCO. (2022). Reimagining our futures together: A new social contract for education. – Paris: UNESCO Publishing.
13. Anderson, R. C., & Pearson, P. D. (1984). A schema-theoretic view of basic processes in reading comprehension. Handbook of reading research, 1, 255-291.
14. IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement). (2021). PIRLS 2021 International Results in Reading.
15. Cummins, J. (2000). Language, power, and pedagogy: Bilingual children in the crossfire. Multilingual Matters.